

## “RO‘YXATGA OLINGAN”

Toshkent shahar Mirzo Ulugbek tumani  
Davlat xizmatlari Markazi tomonidan  
2026-yil 12 fevral da  
04-00617 -son  
reyestr raqami bilan

## “TASDIQLANGAN”

“O‘znergota minlash” AJ  
barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari  
egasi - aksiyadorining 2025-yil  
30 dekabr dagi 2/2025 -son  
qarori bilan



# “O‘ZENERGOTA’MINLASH” aksiyadorlik jamiyati

## Ustavi

(yangi tahrir)

Toshkent – 2025

«O‘ZENERGOTA’MINLASH» aksiyadorlik jamiyati

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.3. Jamiyatning nomi:

O'zbek tili kirill alifbosida:

- To'liq nomi: **“ЎЗЭНЕРГОТАЪМИНЛАШ” акциядорлик жамияти;**

- Qisqartirilgan nomi: **“ЎЗЭНЕРГОТАЪМИНЛАШ” АЖ.**

O'zbek tili lotin alifbosida:

- To'liq nomi: **"O'ZENERGOTA'MINLASH" aksiyadorlik jamiyati;**

- Qisqartirilgan nomi: **"O'ZENERGOTA'MINLASH" AJ.**

Rus tilida:

- To'liq nomi: **Акционерное общество «Узэнерготашминлаш»;**

- Qisqartirilgan nomi: **АО «Узэнерготашминлаш».**

Ingliz tilida:

- To'liq nomi: **Joint-Stock Company "UZENERGOTAMINLASH";**

- Qisqartirilgan nomi: **JSC "UZENERGOTAMINLASH".**

1.4. Bundan buyon matnda "jamiyat" deb ataluvchi "O'ZENERGOTA'MINLASH" Aksiyadorlik jamiyatining joylashgan joyi va pochta manzili:

O'zbekiston Respublikasi, 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod MFY, Oliy himmat ko'chasi, 128a uy.

Jamiyatning rasmiy veb-sayti: [www.uzet.uz](http://www.uzet.uz)

Jamiyatning elektron pochta manzili: [info@uzenergotaminlash.uz](mailto:info@uzenergotaminlash.uz)

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-sonli "O'zbekiston Respublikasida elektr eneretika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi qaroriga asosan "O'zenergota'minlash" AJ ni "Issiqlik Elektr Stantsiyalari" AJ ning ustav kapitaliga o'tkazilayotgan "O'zbekenergo" AJ ning ulushlari, hamda ushbu ustavda ko'rsatilgan investorlar va mehnat jamoasi ulushlari orqali tashkil topgan.

1.6. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkga, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkga ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.7. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

1.8. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

**«O'ZENERGOTA'MINLASH» aksiyadorlik jamiyati**

1.9. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

1.10. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega. Muhurda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

1.11. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

1.12. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan uziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

1.13. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

1.14. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

1.15. Jamiyat barcha aksiyadorlariga nisbatan ularning ulushlari, daromadlar darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqedan qat'i nazar teng munosabatni ta'minlaydi.

## **2. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI**

2.1. Jamiyatning maqsadi foyda (daromad) olishdir.

2.2. Jamiyatning faoliyat turlari quyidagilardan iborat:

- ❖ ulgurji savdo faoliyati;
- ❖ energotarmoqqa va boshqa iste'molchilar ehtiyoji uchun ehtiyot qismlar, yordamchi va nostandart uskunalarni ishlab chiqarishini tashkil qilish;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi rezident va norezidentlariga materiallar, uskuna va boshqa mahsulotlarni yetkazib berish;
- ❖ qurilishga oid materiallar va qurilmalar ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- ❖ yer uchastkalari, binolar, inshootlar, korxonalar va boshqa turdagi ko'char va ko'chmas mulklarni sotib olish va ijaraga berish;
- ❖ sanoat va maishiy obyektlarini qurish, montaj qilish va qayta ko'tarish;
- ❖ pullik xizmatlarni tashkil qilish va ko'rsatish.

Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari qonunchilikda o'rnatilgan tartibda litsenziya olingandan keyin amalga oshiriladi.

Asosiy ishlab chiqarish vazifalaridan tashqari, qo'shimcha foyda olish maqsadida jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqiga egadir.

2.3. O'z faoliyatini amalga oshirish uchun va jamiyat oldida turgan masalalarni hal qilish maqsadida, jamiyat quyidagi huquqlarga egadir:

- ❖ o'z nomidan bitimlar, shartnomalar tuzish (shu jumladan xorijiy investorlar bilan), mulkiy va nomulkiy huquqlarni qo'lga kiritish va majburiyatlar bo'yicha javobgar bo'lish, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida amaldagi Qonunchilik bilan belgilangan tartibda sudda, xo'jalik va hakamlilik sudlarida da'vogar va javobgar bo'lish;
- ❖ shartnomalar asosida mutaxassislarni jalb etish, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni ham;
- ❖ mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, rivojlanish istiqbollari aniqlash, ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash hamda aksiyadorlar va mehnat jamoasi a'zolarining shaxsiy daromadlarini oshirish yo'llarini aniqlash;
- ❖ Respublika ichida va undan tashqarida filiallar, vakolatxonalar, qo'shma korxonalar, ishlab chiqarish sexlari, uchastkalari va boshqa yangi korxonalar tashkil etish va ta'sis etish;
- ❖ texnik vositalarni ijaraga berish, ularga xizmat ko'rsatish, uskunalar lizingi punktlarini tashkil qilish;

- ❖ Respublika hududida amaldagi qonunchilikka asosan ko'char va ko'chmas mulkni o'z mulki sifatida sotib olish va ijaraga berish;
- ❖ uyushmalar, ittifoqlar, konsortsiumlar, aksiyadorlik kompaniyalari va jamiyatlariga hamda boshqa birlashmalarga kirish;
- ❖ belgilangan tartibda banklarda har qanday hisoblarni, shu jumladan valyuta hisoblarini ochish, ssudalar va bank kreditlarini olish, qonunchilikka muvofiq ravishda har qanday shaklda mablag'larni o'tkazish va aktseptlash, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotib olish va joylashtirish;
- ❖ qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;
- ❖ mahsulotlar va xizmatlarni sotib olish va sotish;
- ❖ amaldagi qonunchilikka muvofiq, mustaqil ravishda o'z balansidan mol-mulkni, qarzlarni, kamomadni, nolikvid va yaroqsiz (saqlash muddati o'tgan) tovarlarni, boshqa isroflarni chiqarish;
- ❖ ko'ngilochar, ijtimoiy-maishiy va kommunikativ xizmatlar ko'rsatish;
- ❖ seminarlar, konferensiyalar, ko'rgazma va shoular tashkil qilish, o'tkazish va ularda qatnashish;
- ❖ reklama-bezash faoliyatini amalga oshirish;
- ❖ mehnatkashlarning (ishchilarning) yashash darajasini oshirish, dam olishlarini tashkil qilish, uy-joy qurilishi, ishchilarning maishiy sharoitlarini yaxshilashga va x.k. yo'naltirilgan ijtimoiy tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- ❖ Jamiyatning shu'ba va tobe korxonalarini barpo etish;
- ❖ tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- ❖ yangi xalqaro iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish;
- ❖ yuridik va jismoniy shaxslarga konsalting, texnik xizmat ko'rsatish, qurilish, axborot, lizing va marketing xizmatlarini ko'rsatish;
- ❖ savdo ko'rgazmalari va yarmarkalarida qatnashish va ularni uyushtirish;
- ❖ "nou-xau" patentlarini va ratsionalizatorlik takliflarini sotib olish va sotishni amalga oshirish;
- ❖ Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga haqlidir. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari bilan Jamiyat shunday litsenziya olganidan keyin shug'ullanishi mumkin.

### **3. JAMIYAT USTAV FONDINING (USTAV KAPITALINING) MIQDORI**

3.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

3.2. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) jamiyat mol-mulkinging jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

3.3. Jamiyat oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma besh foizidan oshmasligi kerak.

3.4. Jamiyat ustav fondi miqdori 9 623 360 000 (to'qqiz milliard olti yuz yigirma uch million uch yuz oltmish ming) so'mni tashkil qiladi va nominal qiymati 2 000 (ikki ming) so'm bo'lgan 4 811 680 (to'rt million sakkiz o'n bir ming olti yuz sakson) dona aksiyalarga, shundan 4 714 950 (to'rt million yetti yuz o'n to'rt ming to'qqiz yuz ellik) dona egasining nomi yozilgan oddiy va 96 730 (to'qson olti ming yetti yuz o'ttiz) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalardan iborat.

### **4. JAMIYAT AKSIYALARINING SONI, NOMINAL QIYMATI, TURLARI**

4.1. Jamiyat tomonidan 4 714 950 (to'rt million yetti yuz o'n to'rt ming to'qqiz yuz ellik) dona egasining nomi yozilgan oddiy va 96 730 (to'qson olti ming yetti yuz o'ttiz) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar chiqarilgan va joylashtirilgan.

4.2. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 2 000 (ikki ming) so'm.

### **5. JAMIYATNING USTAV FONDINI (USTAV KAPITALINI)**

#### **KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH**

«O'ZENERGOTA'MINLASH» aksiyadorlik jamiyati

5.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

5.2. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

5.3. Qo'shimcha aksiyalar mazkur Ustavda belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasidagina jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori — nominal qiymati 2 000 (ikki ming) so'm bo'lgan 4 000 000 (to'rt million) dona oddiy va 80 000 (sakson ming) dona imtiyozli egasi yozilgan aksiyalardan iborat.

5.4. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qaror jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

5.5. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

5.6. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda mazkur Ustavda ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

5.7. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi yoki aksiyaning nominal qiymatini oshirish haqidagi qaror jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

5.8. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faqat jamiyatning o'z kapitali hisobidan amalga oshiriladi.

5.9. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

5.10. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

5.11. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar konyunkturasiidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

5.12. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.

5.13. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yohud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.

5.14. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Jamiyatni ta'sis etish chog'ida uning aksiyalariga haq to'lash tartibi jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasida (o'zgartish to'g'risidagi qarorda) yoki jamiyat Ustavida, qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga haq to'lash esa, ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilab qo'yiladi.

5.15. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

5.16. Agar jamiyatning puldan o'zga vositalar bilan haqi to'lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etsa, jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur.

5.17. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

5.18. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirishga, agar buning natijasida uning miqdori jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) jamiyat Ustavidagi tegishli o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida aniqlanadigan, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 17-moddasida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, haqli emas.

5.19. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi va jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.20. Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

5.21. Jamiyat ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor qiladi. Kreditorlar jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida o'zlariga bildirish yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishga haqli.

## **6. JAMIYATNING KORPORATIV OBLIGATSIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI**

6.1. Jamiyat korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli.

6.2. Jamiyatning korporativ obligatsiyalari jamiyat aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

6.3. Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish sanasidagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli.

6.4. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish jamiyat kuzatuv Kengashining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

6.5. Jamiyat tomonidan Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror Jamiyat kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.

## **7. JAMIYATNING FONDLARI**

- 7.1. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) 20 foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.
- 7.2. Jamiyatning zaxira fondi mazkur Ustavda belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori Jamiyat Ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.
- 7.3. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.
- 7.4. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.
- 7.5. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa fondlarni tashkil etish huquqiga ega.

## **8. DIVIDENDLARNI TO'LASH**

- 8.1. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.
- 8.2. Jamiyat imtiyozli aksiyalari o'z egalariga Jamiyat daromad olgan yoki olmaganligiga qaramasdan, har yili aksiyalar nominal qiymatining 25 foizi miqdorida dividend olish huquqini beradi. Oddiy aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar miqdori imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar miqdoridan ko'p bo'lsa, imtiyozli aksiya egalariga oddiy aksiyalar bo'yicha to'langan dividendlarning miqdorigacha qo'shimcha haq to'lanadi.
- 8.3. Imtiyozli aksiyalar egalari Jamiyat tugatilgan taqdirda uning mulklari taqsimlanayotgan paytda oddiy aksiya egalari o'rtasida mulk taqsimoti amalga oshirilgunga qadar o'z aksiyalarining nominal qiymatini oladilar.
- 8.4. Jamiyat o'zi joylashtirgan imtiyozli aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.
- 8.5. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yohud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.
- 8.6. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.
- 8.7. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.
- 8.8. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.
- 8.9. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.
- 8.10. Dividendlarni to'lash muddat va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.
- 8.11. Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni

to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda jamiyat mazkur aksiyalarning egalariга dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyat tomonidan jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin.

8.12. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 37-moddasida nazarda tutilgan hollarda imtiyozli aksiyalarni Jamiyat tomonidan sotib olish imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining 100 (bir yuz) foiziga teng narx bo'yicha amalga oshiriladi.

8.13. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni Korporativ axborot yagona portalida va Jamiyatning rasmiy veb-saytida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

## **9. JAMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI, ULARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI VA VAKOLATLARI**

9.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organlaridir.

### **Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi**

9.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

9.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat kuzatuv kengashining Raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

9.4. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart.

9.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi, jamiyatning Bosh direktor bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 59-moddasi birinchi qismining o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatboshilariga muvofiq jamiyatning yillik hisoboti jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

9.6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

9.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

9.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

2) jamiyatni qayta tashkil etish;

3) jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

**«O'ZENERGOTA'MINLASH» aksiyadorlik jamiyati**

- 5) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- 6) jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish;
- 7) jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish;
- 8) o'z aksiyalarini olish;
- 9) jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- 10) jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- 11) jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- 12) jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- 13) jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish;
- 14) jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 15) qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 16) jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 17) imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
- 18) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;
- 19) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
- 20) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- 21) jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
- 22) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 23) majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- 24) Jamiyatning boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlash;
- 25) xar yili mustaqil professional tashkilotlar — maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 26) jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

27) elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);

28) homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish. Bunda, homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar biznes-rejaning o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda hamda kuzatuv kengashining tegishli tavsiyasi asosida amalga oshiriladi (bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno);

29) dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilish, aksiyalarning har bir toifasi va turi bo'yicha dividend miqdori, to'lov shakli va tartibini belgilash;

30) qonunchilikka va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

9.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

9.10. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

9.11. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

9.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari Qonunda hamda jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda, biroq bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

Agar Jamiyat aksiyalari fond birjasining listingiga kiritilgan bo'lsa Jamiyat fond birjasining rasmiy veb-saytida tegishli axborotni e'lon qilishi shart.

9.13. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan kuzatuv kengashining mustaqil a'zozligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

9.14. Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

### **Kuzatuv kengashi**

9.15. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

9.16. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

2) Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

3) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

4) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

5) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- 6) O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;
- 7) Mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- 8) Jamiyatning boshqaruv a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, agar jamiyat ustaviga ko'ra bunday huquq jamiyat kuzatuv kengashiga berilgan bo'lsa;
- 9) Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash, agar jamiyat ustavida bunday lavozimni joriy etish nazarda tutilgan bo'lsa;
- 10) Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;
- 11) Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- 12) Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
- 13) Jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
- 14) Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- 15) Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;
- 16) Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- 17) Jamiyatning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;
- 18) O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;
- 19) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;
- 20) Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish.
- 21) Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish masalalarini, shuningdek Jamiyat Ustaviga Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish, Jamiyat Ustaviga Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish bundan mustasno;
- 22) Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasini tasdiqlash;
- 23) Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga (aksiyalar, obligatsiyalar) va emissiya risolasiga kiritilayotgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar matnini tasdiqlash;
- 24) O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;
- 25) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 26) Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

27) Ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlarini belgilash.

9.17. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni va mazkur Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

9.18. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

9.19. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda va jamiyat ustavida nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni 5 (besh) kishidan iborat.

9.20. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

9.21. Jamiyat boshqaruvi a'zolari va direktori, uning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zolari jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

9.22. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

9.23. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar Jamiyat Ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.

9.24. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

9.25. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

9.26. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

9.27. Jamiyat kuzatuv kengashining Raisi kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

9.28. Jamiyatning kuzatuv kengashi o'z Raisini kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

9.29. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

9.30. Jamiyat kuzatuv kengashining Raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

9.31. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining Raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi, ijroiya organi a'zosining talabiga ko'ra chaqiriladi.

9.32. Jamiyat kuzatuv kengashi majlislari uning Raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

9.33. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kворum jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

9.34. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni mazkur Ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart.

Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

9.35. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, agar qonunchilikda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

9.36. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

9.37. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.38. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengash a'zolarining ovozi teng bo'lgan hollarda hal qiluvchi ovozga ega.

9.39. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda hozir bo'lgan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

9.40. Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) jamiyat kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

9.41. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

### **Ijroiya organi**

9.42. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi.

9.43. Jamiyat Bosh direktori vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

9.44. Jamiyat Bosh direktorining vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

9.45. Jamiyatning Bosh direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

9.46. Jamiyatning Bosh direktori nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.

### **Bosh Direktor vakolatlariga quyidagilar kiradi:**

- ❖ O'z vakolati doirasida jamiyat faoliyatini boshqarish;
- ❖ Jamiyat nomidan ishonchnomasiz harakat qilish, shuningdek, uning manfaatlarini ifoda qilish;
- ❖ Jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;
- ❖ Vakolati doirasida Jamiyat nomidan bitimlar tuzish;

- ❖ Ishchilarni yo'llash, ular bilan mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy ta'sir choralari qo'llash, hodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;
- ❖ Shtat jadvalini tasdiqlash;
- ❖ Barcha xodimlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va ko'rsatmalarini berish;
- ❖ Statistik va buxgalterik hisobotlarni tegishli davlat organlariga o'z vaqtida va to'liq taqdim etilishini ta'minlash;
- ❖ Ijtimoiy garovlarni va xodimlarning mehnat muhofazasi talablariga rioya qilinishini ta'minlash;
- ❖ Jamiyat mulki va pul mablag'lari bilan vakolati doirasida boshqarish;
- ❖ Filial va vakolatxonalar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va ko'rsatmalarini berish;
- ❖ Filial va vakolatxonalar rahbarlarini tayinlash va egallab turgan lavozimlaridan ozod etish;
- ❖ Jamiyat kuzatuv kengashi oldida har chorak yakuni bo'yicha yillik biznes rejaning bajarilishi bo'yicha hisobotlar berish;
- ❖ Jamiyatni rivojlantirish dastur va biznes-rejalarini ishlab chiqishni boshqarish, tashkil etish va ularning ijrosini nazorat qilish;
- ❖ Jamiyat biznes rejasida ko'zda tutilgan foydaga erishishini ta'minlash;
- ❖ Kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining talabiga binoan Jamiyat moliyaviy – xo'jalik faoliyatiga tegishli hujjatlarni to'siqlarsiz taqdim etish;
- ❖ Jamiyatda buxgalteriya hisobining hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa ma'lumot oluvchilarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tashkil etilishi, holati va ishonchliligini ta'minlash;
- ❖ Jamiyatning ish bilan bog'liq va tijorat sirlarini o'z ichiga oluvchi ma'lumotlarini saqlashni tashkil etish;
- ❖ Dividendlarni hisoblanishi va to'lanilishida aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;
- ❖ Jamiyatning samarali va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash;
- ❖ Mehnat va texnik intizomni saqlash;
- ❖ Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan belgilangan muddatlarda faoliyat bo'yicha tegishli ma'lumotlarni taqdim etish;
- ❖ Amaldagi qonunchilik va qonun osti hujjatlari va Jamiyatning ichki normativ hujjatlariga amal qilish.

Jamiyat Bosh direktori O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va jamiyatning ichki hujjatlariga asosan boshqa vakolat (huquq) va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

9.47. Jamiyat Bosh direktorining huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida, mazkur Ustavda, lavozim yo'riqnomasida hamda uning bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat kuzatuv kengashining Raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolandi. Jamiyat Bosh direktori bilan tuziladigan shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va jamiyat kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

9.48. Jamiyatning Bosh direktoriga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilangan bo'lishi kerak.

9.49. Jamiyatning Bosh direktori vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat Jamiyat kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

9.50. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning Bosh direktori bilan tuzilgan shartnomani u tomonidan shartnoma shartlarini buzgan taqdirda tugatishga (bekor qilishga) haqli.

9.51. Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyatning Bosh direktori bilan tuzilgan shartnomani, agar ular mazkur Ustavni qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

9.52. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat Bosh direktori vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Jamiyat Bosh direktori vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi masala o'sha yig'ilishning o'zida hal etilishi yohud Jamiyat Bosh direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlagan holda aksiyadorlarning yaqin oradagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilishi mumkin.

9.53. Jamiyat Bosh direktori tanlov asosida saylanadi (tayinlanadi). Shuningdek ijroiya rahbari etib chet elik menejerlar ham saylanishi (tayinlanishi) mumkin.

#### **10. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING, JAMIYAT DIREKTORINING, BOSHQARUV A'ZOLARINING, ISHONCHLI BOSHQARUVCHINING JAVOBGARLIGI**

10.1. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyat direktori va boshqaruvi a'zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

10.2. Agar boshqaruv organining bir nechta shaxslari javobgar deb topilsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

10.3 Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi bundan a'zolari "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 90-moddasida belgilangan hollar mustasno.

10.4. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, direktori yoki boshqaruv a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

10.5. Sud jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini, boshqaruv direktorini yoki a'zosini, shuningdek ishonchli boshqaruvchini jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, sud qaroriga ko'ra ularning vakolatlari xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallash taqiqlangan holda kamida bir yil muddatga tugatilishi mumkin.

10.6. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv direktori yoki a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

- chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;
- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;
- jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik;
- fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik.

10.7. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining, jamiyat direktorining, boshqaruv a'zolarining hamda ishonchli boshqaruvchining fidutsiar majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanishni;
- jamiyat mol-mulkidan jamiyatning ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikni;
- jamiyatning biznes imkoniyatlaridan yoki jamiyat uchun manfaatli bo'lgan obyektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeyidan kelib chiqqan holda, jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslikni;
- jamiyatning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz amalga oshirmaslikni;
- qonunchilikka, jamiyatning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslikni;

- o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslikni.

10.8. Qonunchilikda, jamiyat ustavida va ichki hujjatlarida jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining, jamiyat direktorining, boshqaruv a'zolarining hamda ishonchli boshqaruvchining boshqa fidutsiar majburiyatlari belgilanishi mumkin.

10.9. Agar jamiyatning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

## **11. JAMIYATNING FAOLIYATINI NAZORAT QILISH**

### **Ichki audit xizmati**

11.1. Jamiyat ichki audit xizmati jamiyat Kuzatuv kengashiga va kuzatuv kengashi qoshidagi audit qo'mitasiga hisobdordir.

11.2. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

Shuningdek, Ichki audit xizmati jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

11.3. Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Jamiyat Kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta'minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo'yicha jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;
- ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan jamiyat boshqaruv organiga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

11.4. Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- har yili Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);
- tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;
- buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo'linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, solik, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;
- texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda jamiyatning kuzatuvchi kuzatuv kengashiga ko'maklashish.

11.5. Jamiyatning ichki audit xizmati:

- tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;
- korporativ boshqarish prinsiplariga rioya qilinishini;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini;
- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;
- aktivlarning holatini;
- ichki nazoratning holatini tekshiradi va ularning monitoringini olib boradi.

11.6. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga hamda Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga muvofiq amalga oshiradi.

### **Auditorlik tashkiloti**

11.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun tanlov asosida auditorlik tashkiloti jalb etiladi.

11.8. Jamiyatning yil yakuni bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish xalqaro auditorlik tarmoqlariga va xalqaro uyushmalariga a'zo bo'lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

11.9. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va auditorlik xulosasini taqdim etadi.

11.10. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va jamiyat faoliyati bilan bog'lik boshqa axborotlar haqida noto'g'ri xulosasi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

11.11. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) asoslar bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashini bu haqda oldindan xabardor qilgan holda Jamiyat faoliyatini tekshirish uchun Jamiyat hisobidan tashqi audit o'tkazishni tashabbus qilish huquqiga ega.

11.12. Jamiyatning besh foizdan kam bo'lmagan ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyador affillangan shaxs bilan tuzilgan qaysi bitim natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa yoxud ushbu bitim tuzilganligi oqibatida kelgusida zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, o'sha bitimni tuzishga doir talablar buzilishining mavjud belgilarini o'rganish uchun mustaqil ravishda auditorlik tashkilotini jalb etishga haqli. Sud tomonidan bitim tuzishga doir talablar buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda, jamiyat sudning qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran bir oy muddatda aksiyadorning auditorlik tashkilotini jalb etishga doir xarajatlarining o'rnini mazkur xizmatlarning bozor qiymatidan ko'p bo'lmagan miqdorda qoplashi shart.

## 12. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Jamiyat ijroiya organi o'z vakolatlari doirasida mazkur ustavga kiritiladigan barcha o'zgartirish, qo'shimchalarni yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi.

12.2. Jamiyat ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

12.3. Agar mazkur ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

12.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida mazkur ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

12.5. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

12.6. Mazkur Ustav va uning kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

**“O'znergota'minlash” AJ**  
**Bosh direktori**

**Sh. Kambarov**

